



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

FILOLOGIK TADQIQOTLARNING YANGI BOSQICI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR

III XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI

2025-yil, 21-OKTABR

BUXORO – 2025

ANJUMAN DASTURIY QO'MITASI

- | | | |
|-----|----------------|--|
| 1. | B.B. Ma'murov | - Buxoro davlat pedagogika instituti rektori, rais; |
| 2. | Z.M. Muqimov | - Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais muovini; |
| 3. | G.R. Akramova | - Ilmiy – tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, a'zo; |
| 4. | X.A. Xaitov | - Tillar fakulteti dekani, a'zo; |
| 6. | U.S.Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 7. | D.B.Axmedova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 8. | G.B.Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. | G.R.Mirxanova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. | R.A.Saidova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 11. | Y.U.Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 12. | Sh.Sh.Nizomova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 13. | N.H.Hojiyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 14. | M.U.Usmonova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. | N.A.Bafoyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. | N.O. Avazova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 17. | S.T. Latipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo |

ILMIY ANJUMANNING TASHKILIIY QO'MITASI

- | | | |
|-----|-----------------|---|
| 1. | M.M. Bafayev | - O'quv ishlari bo'yicha prorektor, rais; |
| 2. | M.L. Umedjanova | - Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, rais muovini; |
| 3. | U.S. Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 4. | F.R.Rustamov | Tillar fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari |
| 5. | L.F. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 6. | M.Y. Ro'ziyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 7. | Sh.M. Istamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 8. | M.B. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. | G.B. Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. | R.R. Xalilova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 11. | M.U. Usmonova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 12. | F.K. Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 13. | N.N. Mirjonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 14. | M.Y. Latifova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. | M.A. Tilavova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. | M.V. Jabborova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo. |

To'plam O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda "2025-yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 496-sonli buyrug'i rejasida belgilangan tadbirlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Buxoro davlat pedagogika institutida o'tkazilgan "Filologik tadqiqotlarning yangi bosqichi: zamonaviy tendensiyalar va istiqbollar" mavzusidagi III xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari asosida tuzildi.

Mas'ul muharrir:

G.B. Rustamova - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Taqrizchilar:

D.S. O'rayeva - filologiya fanlari doktori, professor
F.S. Safarova - filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

ZAMONAVIY TA'LIMDA TIL VA ADABIYOT INTEGRATSIYASI O'RNI

G'ulomova Hilola Shavkatovna,

mustaqil izlanuvchi,

Buxoro shahar 28-umumiy o'rta ta'lim maktabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada til va adabiyot fanlari o'rtasidagi integratsiyaning mazmuni va mohiyati yoritilgan. Til bu jamiyatimizdagi muloqot va tafakkur vositasi, adabiyot esa – badiiy tafakkur mahsuli ekani ta'kidlanadi. Fanlararo integratsiya orqali o'quvchilarning til boyligi, estetik didi, tahliliy fikrlashi yanada rivojlanadi. Dars jaryonida foydalanish metod va usullaridan foydalanish, til va adabiyotning o'rgatilishi ta'lim sifati va tarbiyaviy ahamiyatni oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Kalit so'zlar: Til, adabiyot, muloqot, jamiyat, talim, tafakkur, tarbiyaviy ahamiyati, tahliliy fikrlash, estetik did, badiiy adabiyot, integratsiya.

Ключевые слова: Язык, литература, коммуникация, общество, образование, мышление, образовательная ценность, аналитическое мышление, эстетический вкус, художественная литература, интеграция.

Keywords: Language, literature, communication, society, education, thinking, educational value, analytical thinking, aesthetic taste, fiction, integration.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrda qabul qilingan "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risidagi 158-sonli farmonida[1] ta'lim sifatini oshirish, oliy va umumiy o'rta ta'lim tizimini zamon talablari asosida takomillashtirish, ilg'or xorijiy tajriba va interfaol metodlarni tatbiq etish muhim yo'nalishlardan biri sifatida belgilab qo'yilgan. Xususan, mazkur strategiyada ta'lim samaradorligini oshirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini kuchaytirish va innovatsion yondashuvlarni qo'llab-quvvatlash kabi masalalarga

alohida e'tibor qaratilgan.

Hozirgi zamon ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlar va fanlararo integratsiya muhim o'rin tutmoqda. Integratsiya — bu turli fanlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'lim jarayonida uyg'unlashtirish, bir-birini to'ldiruvchi bilimlarni yagona tizimda shakllantirishdir. Til va adabiyot fanlarini integratsiyalashgan holda o'qitish esa o'quvchilarda nafaqat bilim, balki tahliliy fikrlash, estetik idrok va ijodiy yondashuvni rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Til — bu tafakkur va muloqot vositasi, adabiyot esa shu til orqali inson ruhiyatini, milliy qadriyatlarni badiiy ifodalash san'atidir. Shu sababli bu ikki fan bir-biridan ajralmasdir. Ularni uyg'un holda o'qitish nafaqat o'quvchining bilimini mustahkamlaydi, balki ona tili imkoniyatlarini chuqurroq anglash va milliy adabiy merosni teran his qilishga yordam beradi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida fanlararo integratsiya o'quvchilarning bilim darajasini oshirish, tafakkurini rivojlantirish va o'rganilayotgan materialning hayotiy ahamiyatini ochib berish uchun muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Til va adabiyot integratsiyasi ayniqsa, ona – tilini chuqur o'rganish hamda badiiy-estetik tafakkurni shakllantirishda beqiyos ahamiyatga ega. Integratsiyaning mohiyati: Til va adabiyot bir -birini to'ldiruvchi, ajralmas fanlardir. Til fikrni ifodalash vositasi bo'lsa, adabiyot – bu vosita orqali estetik mazmun, ijtimoiy-gumanistik

g'oyalarni ifoda etish shaklidir. Ularning integratsiyasi, avvalo, o'quvchilarda nutq madaniyati, obrazli tafakkur, matnni tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Til adabiyotning asosiy materiali hisoblanadi. Adabiyot esa tildan badiiy va estetik maqsadlarda foydalanadi. Shu sababli ularni alohida emas, balki o'zaro bog'liq holda o'qitish tabiiy ehtiyojdir.

Masalan, o'quvchi Alisher Navoiy g'azallarini o'rganar ekan, shu asarlardagi so'z tanlovi, ibora,

majoz va tildagi nozikliklarni ham anglaydi. Bu esa tilshunoslik bilan adabiyotshunoslikning integratsion nuqtasini belgilaydi.

Integratsiyaning asosiy maqsadi — o'quvchilarda:

- til va adabiyotni uyg'un o'rganish orqali nutq madaniyati shakllantirish;
- badiiy tafakkur va ijodkorlikni rivojlantirish;
- milliy qadriyatlarga hurmatni kuchaytirish;
- o'quvchilarning mantiqiy, tahliliy va mustaqil fikrlash qobiliyatini o'stirish.

Til va adabiyotni integratsiyalashgan holda o'qitishning amaliy tajribalari

Dars jarayonida integratsiya shakllari

Integratsiya turli usullar orqali amalga oshiriladi:

1. Mazmuniy integratsiya — bir mavzu doirasida ikki fan elementlarini uyg'unlashtirish (masalan, "so'z ma'nosi" mavzusini adabiy matn asosida o'rganish).
2. Faoliyatli integratsiya — o'quvchilarni ijodiy faoliyatga jalb etish (masalan, asar tahlilidan so'ng matndan olingan so'zlar bilan insho yozish).
3. Texnologik integratsiya — zamonaviy axborot vositalari (multimedia, interaktiv platformalar) yordamida til va adabiyotni bog'lash.

Dars misollarida integratsiya:

- Til darsida adabiy misollar: "Ot" mavzusini o'tayotganda Oybekning "Bolalik" asaridan olingan parchalarni tahlil qilish orqali o'quvchining til bilimini badiiy matn bilan mustahkamlash.
- Adabiyot darsida til tahlili: Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanidagi metafora va epitetlarni grammatik jihatdan o'rganish.
- Ijodiy ishlar: o'quvchilardan o'rganilgan adabiy asar asosida kichik esse yoki hikoya yozish talab qilinadi.

Integratsiyaning o'quvchi tafakkuriga ta'siri

Til va adabiyotni birgalikda o'qitish:

- o'quvchining tahlil qilish, taqqoslash, xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantiradi;
- nutq boyligi va badiiy ifodani kuchaytiradi;
- o'quvchini ijodiy fikrlashga undaydi;
- milliy identitetni shakllantiradi.

Bugungi kunda integratsiyalashgan ta'limda quyidagi metodlar samarali hisoblanadi:

- Klaster metodi – til va adabiyot elementlarini g'oyaviy bog'liqlik asosida guruhlash.
- Insert metodi – matn bilan ishlashda o'quvchi o'z fikrini belgilovchi belgilar orqali ifodalaydi.
- Blits-so'rov – asar tahlilida tilshunoslik va adabiyotshunoslik savollarini aralashtirib berish.
- Raqamli integratsiya – elektron darsliklar, audio-asarlar, videodarslar orqali o'quvchini faol jalb etish.

Zamonaviy ta'limda integratsiyaning o'rni

Integratsiya o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi, chunki:

- o'quvchi mavzuni turli nuqtai nazardan o'rganadi;
- fanlararo tafakkur shakllanadi;
- o'qituvchining faoliyati ijodiy tus oladi;
- ta'lim jarayoni mazmunan boyiydi.

Til va adabiyot- har bir mamlakatning ma'naviy boyligi, tarixiy xotirasi va madaniy hayotning ajralmas qismidir. Ta'limdagi o'rni va afzalliklari:

1. Lingvistik bilimlarni amaliyotda qo'llash: O'quvchilar adabiy matnlarni o'rganish jarayonida grammatik bilimlarini mustahkamlashadi. Masalan, murakkab gaplar tuzilmasini tahlil qilishda adabiy tahlil yordamida mantiqiy bog'liqlikni tushunish osonlashadi. Kommunikativ kompetensiyani shakllantirish:

Til va adabiyot birgalikda o'rganilganda o'quvchilar fikrni ifodalash, muhokama yuritish, bahs qilish kabi ijtimoiy – ko'nikmalarni egallaydi. Amaliy yondashuvlar, adabiy matn asosida til darslarini tashkil etish, integratsiyaning eng samarali shakli

hisoblanadi. Masalan: Alisher Navoiy, Abdulla Qodiriy, O'tkir Hoshimov kabi yozuvchilarning asarlari grammatik tahlil bilan uyg'unlashtirib o'rganilsa, til va adabiyot mazmunan birlashadi. Shuningdek, adabiyot darslarida fonetik, leksik, morfologik tahlil unsurlarini kiritish mumkin. Integratsiya orqali adabiyot darslari faqatgina asar mazmunini yod olish emas, balki tilshunoslik nuqtayi nazaridan ham o'rganiladigan, murakkab va ko'p qatlamli tahlil maydoniga aylanadi.

Misol uchun, asardagi obrazlar nutqining stilistik xususiyatlarini tahlil qilish, dialoglarning

sintaktik qurilishini o'rganish yoki muallif tilining o'ziga xosliklarini aniqlash orqali o'quvchi

nazariy til bilimini badiiy tahlil bilan bog'laydi. Bu jarayon o'quvchilarda quyidagi konikmalarni

shakllantiradi:

1. Analitik fikrlash – Adabiy matndagi til vositalarini aniqlash va ularning vazifasini tushunish.

2. Ijodiy yozish – O'z fikrini ifodali, mazmunli va badiiy uslubda bayon etish.

3. Estetik did – Matnning badiiy qiymatini anglash, go'zallikni sezish va qadrlash.

4. Interaktiv o'rganish — Guruhda ishlash, matn ustida fikr almashish, bahsli savollarga javob topish.

Shuningdek, til va adabiyotning uyg'unligi o'quv jarayoniga jonlilik olib kiradi. Masalan, darsda adabiy obrazlar tilidagi emotsional ifodalarni muhokama qilish, muallif uslubini boshqa yozuvchilar uslubi bilan solishtirish, til vositalari orqali muayyan davr yoki muhitni tasvirlash kabi mashg'ulotlar o'quvchini faol ishtirokchi sifatida jalb etadi. Metodik jihatdan, integratsiyalashgan darslarda quyidagi shakllardan foydalanish samarali boladi: Matn asosida grammatika: Asardagi gap tuzilmasi, zamonlar yoki so'z yasalishiga oid topshiriqlar. Badiiy ifoda vositalarini tahlil qilish: Tashbeh, epitet, metafora, personifikatsiyalarni aniqlab, ularning tasirini baholash. Insho va esse yozish: Organilgan asar asosida shaxsiy fikrlarni tahliliy tarzda ifodalash. Bunday yondashuv talim jarayonini biryoqlama emas, balki ko'p qirrali va tizimli qiladi. Shu bilan birga, o'quvchining til va adabiyotga bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi, ularni o'qishga, fikr yuritishga va mulohaza qilishga undaydi. Til va adabiyot fanlarini uyg'un holda o'qitish zamonaviy pedagogikaning samarali yondashuvlaridan biri sifatida o'zini oqlamoqda. Bunday integratsiya o'quvchini fikrlashga, tahlil qilishga, shuningdek, til imkoniyatlarini chuqurroq anglashga yo'naltiradi. Xulosa

Til va adabiyotni o'qitishda integratsiya — zamonaviy pedagogikaning muhim talabi hisoblanadi. U o'quvchilarni faqat bilim egallash emas, balki fikrlash, his qilish va ijod qilishga o'rgatadi. Bunday yondashuv orqali:

-o'quvchilar tilni amaliy va estetik jihatdan chuqurroq o'zlashtiradilar;

-adabiyot darslari hayotiy mazmun bilan boyiydi;

-milliy o'zlik va ma'naviy qadriyatlar mustahkamlanadi.

Shunday qilib, til va adabiyot fanlarining integratsiyalashgan holda o'qitilishi o'zbek ta'lim tizimida ijodkor, madaniyatli, milliy g'ururga ega, keng tafakkurli shaxsni tarbiyalashning muhim kafolatidir.

Demak, bu yondashuv orqali o'quvchi estetik did, nutq madaniyati va mustaqil fikr bildirish konikmasini shakllantiradi. Amaliy jihatdan qaralganda, integratsiyalashgan darslar murakkab bilimlarni yengilroq va mazmunli tarzda o'zlashtirishga yordam beradi. Bu esa o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirib, ularni faol va ongli ishtirokchiga aylantiradi. Kelajakda ona tili va adabiyot o'rtasidagi bog'liqlikni chuqurlashtirish, ularni o'zaro to'ldiruvchi vosita sifatida metodik jihatdan takomillashtirib borish dolzarb vazifalardan biridir. Shu yo'l bilan talim jarayoni yanada mazmunli, samarali va hayotiy bolishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" farmoni, 08.10.2019 yil. PF-5847-son. Toshkent sh. //Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. [Elektron resurs]. URL: <https://lex.uz/docs/-4545884>. (murojat sanasi: 12.03.2025).
2. Abduazizov A.A. Ona-tili va adabiyot darslarining zamonaviy texnologiyalari, Toshkent, 2020.
3. A. Yuldasheva. Nutq madaniyati va adabiy til, Toshkent, 2016.
4. Hasanboyeva M. Adabiyot o'qitish metodikasi, Toshkent, 2018.
5. Karimov R. Zamonaviy dars: shakl va usullar, Samarqand, 2020.
6. Mamarasulova G'. Til va adabiyot integratsiyasi: nazariya va amaliyot, Andijon, 2021.
7. Nurmonova D. O'quvchilarda ifodali nutqni shakllantirish. Buxoro, 2020